

O‘ZBEKISTONNING SHARQIY OSIYO DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARINI YO‘LGA QO‘YISH TARIXI

Sotvoldiyev Asadbek Alisher o‘g‘li

Andijon davlat universiteti “Tarix” fakulteti 3-kurs talabasi,

Abstrak: O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Sharqiy Osiyo mintaqasi juda muhim hudud hisoblanadi. Chunki ushbu mintaqada O‘zbekistonning muhim iqtisodiy hamkorlari hisoblangan Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlar joylashgan. Ushbu davlatlar bugungi kunda O‘zbekistonning muhim iqtisodiy hamkorlari bo‘lganligi sababli, ushbu maqolada O‘zbekiston hamda bu davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi tarixi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, elchixona, vazir, investitsiya, savdo, hamkorlik.

Abstract: The East Asian region is a very important region in the foreign policy of the Republic of Uzbekistan. Because in this region there are countries such as the People's Republic of China, South Korea and Japan, which are considered important economic partners of Uzbekistan. Since these countries are important economic partners of Uzbekistan today, this article describes the history of the establishment of diplomatic relations between Uzbekistan and these countries.

Key words: Diplomacy, embassy, minister, investment, trade, cooperation.

Аннотация: Восточноазиатский регион является очень важным регионом во внешней политике Республики Узбекистан. Потому что в этом регионе находятся такие страны, как Китайская Народная Республика, Южная Корея и Япония, которые считаются важными экономическими партнерами Узбекистана. Поскольку эти страны сегодня являются важными экономическими партнерами Узбекистана, в данной статье описана история установления дипломатических отношений между Узбекистаном и этими странами.

Ключевые слова: Дипломатия, посольство, министр, инвестиции, торговля, сотрудничество.

O‘zbekiston Respublikasi ochiq okeanlarga chiqa olmaganligi sababli tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ochiq okean havzalariga chiqishga imkon beruvchi xavfsiz va iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan yo‘llarni ochishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish yo‘llarini belgilash muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday deydi: “Biz jahondagi barcha ezgu niyatli, taraqqiyparvar xalqlar va millatlar bilan hamjihat bo‘lib, nafaqat G‘arb davlatlari, balki Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi rivojlangan sharq mamlakatlarida bo‘lganidek erkin va farovon xayot qurishga

intilmoqdamiz”. [1] Shu o‘rindi XXR hozirgi davrda Tayanch rivojlangan davlat bo‘lib Yalpi Almashlangan Ichki Mahsulot (YAIM) hisobida faqat Amerika Qo‘shma Shtatlaridan keyin Jahonda Ikkinchi o‘rinda turadi. Yaponiya esa postindustrial davlat bo‘lsa Janubiy Koreya Osiyo yo‘lbarlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mintaqa davlatlari bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga ham alohida etibor berilgan.

Tadqiqot metodlari

Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

Natijalar

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasida Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan aloqalar o‘rnatish alohida ahamiyatga egadir. Buning mazmun-mohiyatini O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning quyidagi gaplari to‘la namoyon eta oldi: “qondosh-qardosh mamlakatlar bilan hamkorlikni yuqori davlat darajasida mustahkamlash respublikaning haqiqatan ham teng sherikchilik va o‘zaro hurmat prinsiplari asosida jahon xo‘jalik aloqalari tizimiga kirishiga imkon beradi. Birinchi navbatda Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilishimiz xuddi shu bilan belgilanadi” [2].

1991-yil 27-dekabr O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston O‘zbekistonni Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) mustaqil davlatlar sifatida tan oldi. 1992-yil 2-yanvar Xitoy Xalq Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzinning O‘zbekistonga tashrifi davomida Toshkentda seshanba va chorshanba kunlarida O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yildi hamda elchixonalar ochishga kelishib olindi. 1992-yil 15-oktyabrda XXRning Toshkentda elchixonasi ochildi va shu tarzda O‘zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqalari yo‘lga qo‘yildi [3].

1991-yil dekabr oyida O‘zbekiston mustaqilligini Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) tan oladi [4]. 1992-yil 29-yanvar kuni ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yiladi [5]. Koreya Respublikasi bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida O‘zbekistonga koreys investitsiyasi kirib kela boshladi. Shu yilning o‘zida esa Koreya Respublikasining “*DAEWOO*” kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon viloyatining Asaka tumanida avtomashina ishlab chiqaruvchi korxonani ishga tushirishga kelishib olindi. Bu esa O‘zbekistonning kelgusidagi iqtisodiy rivoji uchun katta ijobiy tasir ko‘rsatdi.

1991-yil 28-dekabrda Yaponiya O‘zbekistonning mustaqilligini tan oladi. Diplomatik munosabatlar esa 1992-yilning 26-yanvar sanasida o‘rnatiladi [6]. Yaponiya iqtisodiyoti postindustrial xarakterga ega bo‘lib O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan zamonaviy elektronikalarni yetkazib beruvchi muhim hamkor

hamda muhim iqtisodiy investor bo‘la oluvchi kam sonli mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Shuni aytish kerakki Sharqiy Osiyo mintaqasidagi bu mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning qisqa davrda o‘rnatilganligi hamda O‘zbekistonning bu mamlakatlar bilan iliq munosabatlar olib borishi sababli bugungi kunda yurtimiz ushbu hududdagi Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya bilan yirik miqdorda savdo va investitsion aloqalarga egadir.

Foydalanilgan abiyotlar ro‘yhati

1. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjixatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq. –T.: O‘zbekiston. 2004. –B. 8.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston. 1998. –B. 30.
3. Muminov Khusanboy Madaminjanovich, Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon Ugli. History of diplomatic and economic relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China (1991-2016) // International Journal of History and Political Sciences (IJHPS). Manhattan, USA. Vol. 04, No. 2. February 11, 2024. –PP.12.
4. The Central Asia-Caucasus ANALYST. URL: <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13369-uzbekistan-and-south-korea-towards-a-special-relationship.html>
5. Review.uz. URL: <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>
6. The Japan Times.
7. URL: https://classified.japantimes.com/nationalday/pdfs/20230901-Uzbekistan_Independence_Day_Special.pdf